

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI  
O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHNING  
QARORI**

**“Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati doirasida loyiha va tadbirlarni  
hamkorlikda amalga oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasining 2023-yil 12-avgustdagi bayoni ijrosini ta‘minlash, “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati doirasida loyiha va tadbirlarni hamkorlikda amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Markaziy Kengashining 2022-yil 28-noyabrdagi 01-04/841-son qarorining 3-bandiga asosan 2022-yil noyabr oyidan boshlab O‘zbekiston yoshlar ittifoqining mahalliy kengashlari faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati doirasida hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar va loyihalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limi boshliqlarining zimmasiga tuman (shahar) darajasida “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyatiga ko‘maklashish bilan bog‘liq quyidagi vazifalar yuklatiladi:

“Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati doirasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy kengashlari bilan muntazam aloqani yo‘lga qo‘yish, hamkorlikda ish tashkil etish;

ushbu qarorning ilovasida keltirilgan “Kamalak” bolalar tashkiloti tomonidan tashkil etiladigan Respublika tanlovlarining maktab hamda mahalliy bosqichlarini belgilangan muddatlarda hamda yuqori saviyada tashkil etilishini muvofiqlashtirish;

tuman (shahar) darajasida “Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlarni Yoshlar ittifoqining hududiy kengashiga taqdim etib borish;

sinf, maktab, tuman (shahar) Sardorlar kengashi faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish;

bolalarning siyosiy-huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyat va sport sohalaridagi ehtiyojlarini o‘rganish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tadbirlar dasturini ishlab chiqish va bajarilishiga ko‘maklashish;

o‘quvchilarda bag‘rikenglik, mehr-muruvvat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro kamsitish illatlarini kamaytirish yuzasidan targ‘ibot uchrashuvlarini tashkil etish;

tuman (shahar) darajasida "Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyati davomida aniqlangan kamchilik va muammolar haqida o'z vaqtida bildirish, ularning oldini olish, bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari D.Kattaxanova va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining o'rinbosari M.Baratova zimmlariga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Yoshlar siyosati va sport vazirligi**  
**huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi**  
**direktori**

Toshkent sh.  
2023-yil "30"-avgust  
01-07/14 -son



**A. Sa'dullayev**

**O'zbekiston yoshlar ittifoqi**  
**Markaziy Kengashi raisi v.b.**

Toshkent sh.  
2023-yil "30"-avgust  
8-QA -son



**T. Poyonov**

Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar  
ittifoqi Markaziy Kengashining  
2023-yil 30 - avgust dagi  
01-07/14 -sonli qo'shma qaroriga  
ILOVA

**“Kamalak” bolalar tashkiloti faoliyati doirasida hamkorlikda amalga  
oshiriladigan tadbirlar va loyihalar  
RO'YXATI\***

<b>T/r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>
1.	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinf, maktab <b>“Sardorlar Kengashi a'zolari saylovi”</b>	sentabr oyining ikkinchi o'n kunligi
2.	<b>“Yangi yulduzlar”</b> bolalar ijodiyoti festivallarining tuman (shahar) bosqichi	oktabr-noyabr
3.	<b>“Quvnoq bolajon”</b> musobasining tuman (shahar) bosqichlari	oktabr-noyabr
4.	<b>“Kamalakdan yangi yil”</b> loyihasi	dekabr
5.	“Ekopatrul”, “Kamalakda oltin kuz”, “Ekohashar”, “Har bir yoshga – bir nihol” loyihalari	oktabr-noyabr
6.	<b>“Kamalak” bilimdonlari”, “Eng namunali Sardorlar Kengashi”</b> tanlovlarining tuman (shahar) bosqichi	yil davomida
7.	Mahallalarda <b>“Yozni “Kamalak” bilan!”</b> loyihasi	iyun-avgust

*Izoh: Ushbu tadbirlar va loyihalardan tashqari tuman (shahar)larda Yoshlar ishlari agentligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi kelishuviga asosan boshqa tadbirlar (ko'rik-tanlov, musobaqa, festivallar, ko'rgazmalar) ham hamkorlikda tashkil etilishi mumkin.*